



# ACADEMIC SPECTRUM

2026-yil 5-son

Ilmiy-metodik jurnal  
Научно методический журнал  
Scientific and Methodical Journal

ISSN

3093-9089

Бухоро - 2026



# **ACADEMIC SPECTRUM**

**Ilmiy-metodik jurnal**  
**Научно методический журнал**  
**Scientific and Methodical Journal**

*№ 5-Son 2026-yil*

**Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyat Axborot va Ommaviy  
komunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2025-yil 26-dekabrdagi №1273056  
sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan**

**BOSH MUHARRIR:**

**Axmadov Nazirjon Rahmat o‘g‘li**

**Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**

**TAHRIRIYAT KENGASHI A‘ZOLARI**

**Кулешов Валерий Владимирович** - pedagogika fanlari doktori, professor Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi (Ukraina).

**Andriyenko Yelena Vasilyevna** - pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta‘limi instituti, Novosibirsk, Rossiya).

**Romm Tatyana Aleksandrovna** - pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta‘lim instituti, Novosibirsk, Rossiya).

**Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorvich** - Texnika fanlari doktori, professor

**Olimov Shirinboy Sharofovich** - pedagogika fanlari doktori, professor (Buxoro davlat universiteti “Pedagogika” kafedrasini mudiri).

**Zaripov Lochin Rustamovich** - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta‘limni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot markazi, O‘quv-uslubiy faoliyatni takomillashtirish boshqarma boshlig‘i).

**Xamidov Akmal Amrulloevich** – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi direktori)

**Nazarov Akmal Mardonovich** - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini mudiri).

**Safarov Dilmurod Xalimovich** - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor (Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi Akademik faoliyat bo‘yicha direktor o‘rinbosari)

**Rustamov Shavkat Shuhrat o‘g‘li** - psixologiya fanlari doktori (DSc), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini dotsenti).

**Ganjiyev Feruz Furqatovich** - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini professori).

**Kosimov Ubaydulla Axrorovich** - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi Pedagogika va psixologiya, ta‘lim texnologiyalari kafedrasini mudiri)

**Ismatova Dilafruz Tuymuratovna** - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini dotsenti).

**Muxlisov Sodikjon Saidjonovich** - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti “Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrasini dotsenti).

**Tilavov Muxtor Hasan o‘g‘li** - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini dotsenti).

**Mas‘ul kotib:**

**Dehqonboyev Shohjahon Oybek o‘g‘li** – Buxoro davlat universiteti Psixologiya kafedrasini o‘qituvchisi

**EDITOR-IN-CHIEF:**

**Akhmadov Nazirjon Rahmat o‘g‘li** — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor.

**MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:**

**Kuleshov Valery Vladimirovich** — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Academician of the Russian Academy of Sciences (Ukraine).

**Andrienko Elena Vasilyevna** — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of Physics, Mathematics, Information and Technological Education, Novosibirsk, Russia).

**Romm Tatyana Aleksandrovna** — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of History, Humanities and Social Education, Novosibirsk, Russia).

**Tadjixodjayev Zokirkhoja Abdusattorovich** — Doctor of Technical Sciences, Professor.

**Shirinboy Sharofovich Olimov** — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Bukhara State University, Head of the “Pedagogy” Department).

**Zarirov Lochin Rustamovich** — Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor (Research Center for the Development of Higher Education under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan, Head of the Department for Improving Educational and Methodological Activities).

**Khamidov Akmal Amrulloevich** — Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Director of the Bukhara Regional Center for Pedagogical Excellence.

**Nazarov Akmal Mardonovich** — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor, Head of the Department of Psychology, Bukhara State University.

**Dilmurod Xalimovich Safarov** — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor (Navoi Regional Center for Pedagogical Excellence, Deputy Director for Academic Affairs).

**Rustamov Shavkat Shuhrat o‘g‘li** — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor, Department of Psychology, Bukhara State University.

**Feruz Furqatovich Ganjiyev** — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor (Bukhara State University, Professor of the “Psychology” Department).

**Kosimov Ubaydulla Axrorovich** — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor, Head of the Department of Pedagogy and Psychology, Educational Technologies at the Bukhara Regional Center for Pedagogical Excellence.

**Ismatova Dilafruz Tuymuratovna** — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor, Department of Psychology, Bukhara State University.

**Mukhlisov Sodiqjon Saidjonovich** — Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor, Department of Information Systems and Digital Technologies, Bukhara State University.

**Tilavov Mukhtor Hasan o‘g‘li** — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor, Department of Psychology, Bukhara State University.

**EXECUTIVE SECRETARY:**

**Dehqonboyev Shohjahon Oybek o‘g‘li** — Lecturer, Department of Psychology, Bukhara State University.

**ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:**

**Ахмадов Назирджон Рахмат угли** — доктор философии по психологии (PhD),  
доцент.

**ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:**

**Кулешов Валерий Владимирович** — доктор педагогических наук, профессор,  
академик Российской академии наук (Украина).

**Андрienко Елена Васильевна** — доктор педагогических наук, профессор  
(Новосибирский государственный педагогический университет, Институт физики,  
математики, информационного и технологического образования, г. Новосибирск, Россия).

**Ромм Татьяна Александровна** — доктор педагогических наук, профессор  
(Новосибирский государственный педагогический университет, Институт истории,  
гуманитарного и социального образования, г. Новосибирск, Россия).

**Таджиходжаев Зокирходжа Абдусатторович** — доктор технических наук, профессор.

**Олимов Ширинбой Шарофович** — доктор педагогических наук, профессор  
(Бухарский государственный университет, заведующий кафедрой «Педагогика»).

**Зариров Лочин Рустамович** — доктор педагогических наук (DSc), профессор (Научно-  
исследовательский центр развития высшего образования при Министерстве высшего  
образования, науки и инноваций Республики Узбекистан, начальник управления по  
совершенствованию учебно-методической деятельности).

**Хамидов Акмал Амруллоевич** — доктор философии (PhD) по педагогическим наукам,  
директор Центра педагогического мастерства Бухарской области.

**Назаров Акмал Мардонович** — доктор психологических наук (DSc), профессор,  
заведующий кафедрой «Психология» Бухарского государственного университета.

**Сафаров Дилмурод Халимович** — доктор психологических наук (DSc), профессор  
(Навоийский областной центр педагогического мастерства, заместитель директора по  
академической деятельности).

**Рустамов Шавкат Шухрат угли** — доктор психологических наук (DSc), доцент  
кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

**Ганжиев Феруз Фуркатович** — доктор психологических наук (DSc), доцент  
(Бухарский государственный университет, профессор кафедры «Психология»).

**Косимов Убайдулла Ахрорович** — доктор философии (PhD) по психологическим  
наукам, доцент, заведующий кафедрой педагогики и психологии, образовательных  
технологий Центра педагогического мастерства Бухарской области.

**Исмадова Дилафруз Туймуратовна** — доктор философии по психологии (PhD), доцент  
кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

**Мухлисов Содикжон Саиджонович** — доктор философии по педагогическим наукам  
(PhD), доцент кафедры «Информационные системы и цифровые технологии» Бухарского  
государственного университета.

**Тилавов Мухтор Хасан угли** — доктор философии по психологии (PhD), доцент  
кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

**ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ:**

**Дехконбоев Шохжахон Ойбек угли** — преподаватель кафедры «Психология»  
Бухарского государственного университета.

## MUNDARIJA:

<b>T/R</b>	<b>Mualliflar</b>	<b>Maqola sarlavhasi</b>	<b>Bet</b>
1	<i>RAZAKOV FARXOD KUVONDIKOVICH</i>	TALABALARDA PROKRASTINATSIYA VA O‘Z-O‘ZINI BOSHQARISH KO‘NIKALARINI RIVOJLANTIRISHDA METAKOGNITIV YONDASHUVLARNING SAMARADORLIGI	7
2	<i>JUMABAEV TIMUR JALGASBAEVICH</i>	SPORT FAOLIYATIDA SHAXSIY RIVOJLANISH VA O‘ZINI TAKOMILLASHTIRISH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI	14
3	<i>OLIMOV SHIRINBOY SHAROPOVICH</i>	TALABALARNI KASBIY TAYYORLASHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	20
4	<i>FAZLIDDINOV OMADBEK ILYOSBEK O‘G‘LI</i>	RAQAMLI PEDAGOGIKA SHAROITIDA MA‘NAVIY TARBIYA MASALALARI	24

**Fazliddinov Omadbek Ilyosbek o'g'li**

*Andijon davlat pedagogika instituti Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası talabasi*

### **RAQAMLI PEDAGOGIKA SHAROITIDA MA'NAVIY TARBIYA MASALALARI**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada raqamli pedagogika sharoitida ma'naviy tarbiyaning dolzarb masalalari, uning mazmun-mohiyati hamda yoshlar ongiga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, kibermakon va blogosferaning tarbiyaviy ahamiyati, ularning ijobiy va salbiy jihatlari tahlil qilinadi. Ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish zaruriyati asoslab beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *raqamli pedagogika, ma'naviy tarbiya, kibermakon, blogosfera, yoshlar tarbiyasi, axborot texnologiyalari.*

**Фазлиддинов Омадбек Илёсбек угли**

*студент кафедры национальной идеи, основ духовности и правового образования  
Андижанского государственного педагогического института*

### **ПРОБЛЕМЫ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ПЕДАГОГИКИ**

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются актуальные проблемы духовно-нравственного воспитания в условиях цифровой педагогики, раскрывается их сущность и влияние на сознание молодежи. Также анализируется воспитательное значение киберпространства и блогосферы, их положительные и отрицательные стороны. Обосновывается необходимость использования современных педагогических подходов в формировании духовных ценностей.*

**Ключевые слова:** *цифровая педагогика, духовно-нравственное воспитание, киберпространство, блогосфера, воспитание молодежи, информационные технологии.*

**Fazliddinov Omadbek Ilyosbek o'g'li**

*Student of the Department of National Idea, Fundamentals of Spirituality and Legal Education at  
Andijan State Pedagogical Institute*

### **ISSUES OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION IN THE CONTEXT OF DIGITAL PEDAGOGY**

**Annotation:** *This article discusses the actual issues of spiritual and moral education in the context of digital pedagogy, highlighting its essence and its impact on the consciousness of young people. It also analyzes the educational role of cyberspace and the blogosphere, including their positive and negative aspects. The necessity of applying modern pedagogical approaches in shaping spiritual values is substantiated.*

**Key words:** *digital pedagogy, spiritual and moral education, cyberspace, blogosphere, moral education of youth, information technologies.*

**Kirish:** *Bugungi kunda dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda jamiyat hayotining barcha sohalariga raqamli tizimlarning chuqur kirib borishi ta'lim va tarbiya tizimini tubdan o'zgartirmoqda. Ayniqsa, raqamli pedagogikaning shakllanishi va rivojlanishi nafaqat bilim berish usullarini modernizatsiya qilmoqda, balki yosh avlodning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirish jarayoniga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, raqamli pedagogika sharoitida ma'naviy tarbiya masalalarini o'rganish va ilmiy asosda tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.*

Ma'naviy tarbiya — bu shaxsning ichki dunyosi, qadriyatlari, axloqiy me'yorlari va ijtimoiy ongini shakllantirishga qaratilgan murakkab pedagogik jarayondir. An'anaviy tarbiya tizimida bu jarayon ko'proq oila, maktab va jamiyatning bevosita ta'siri orqali amalga oshirilgan bo'lsa, hozirgi kunda raqamli muhit — internet, ijtimoiy tarmoqlar, blogosfera va turli multimedia platformalari orqali amalga oshirilmoqda. Natijada yoshlar ongiga ta'sir etuvchi omillar soni keskin ortib bormoqda va tarbiya jarayoni yanada murakkablashmoqda. Raqamli pedagogika sharoitida ta'lim berish imkoniyatlari kengayib, masofaviy o'qitish, interaktiv metodlar, sun'iy intellekt asosidagi platformalar orqali bilim olish jarayoni samaradorligi oshmoqda. Biroq shu bilan birga, ushbu muhitda ma'naviy tahdidlar va axborot xurujlari, soxta qadriyatlar va zararli kontentlarning keng tarqalishi yoshlarning ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu esa pedagoglar, ota-onalar hamda jamiyat zimmasiga ma'naviy tarbiyani zamonaviy shakl va usullar asosida tashkil etish vazifasini yuklaydi.

**Asosiy qism:** Raqamli pedagogika sharoitida ma'naviy tarbiya masalalari bugungi kunda pedagogika, psixologiya va ijtimoiy fanlar kesimida eng dolzarb muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki raqamli muhit nafaqat bilim olish vositasi, balki shaxs ongiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-madaniy makon hamdir. Shu bois, ma'naviy tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida qayta ko'rib chiqish va uni raqamli makon bilan uyg'unlashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Avvalo, ma'naviy tarbiya tushunchasining mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratish lozim. Ma'naviy tarbiya — bu shaxsda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish, uning axloqiy ongini rivojlantirish, jamiyatda o'z o'rnini anglashga yordam beruvchi murakkab va uzluksiz pedagogik jarayondir. O'zbek pedagogik tafakkurida bu masala alohida o'rin tutadi. Jumladan, ma'naviyatni shakllantirishda milliy qadriyatlar, urf-odatlar va tarixiy meros muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi. Shu jihatdan qaraganda, raqamli pedagogika sharoitida ham ushbu qadriyatlarni saqlab qolish va yoshlar ongiga singdirish muhim vazifalardan biridir. Raqamli muhitning kengayishi bilan tarbiya jarayonining shakl va usullari ham tubdan o'zgarib bormoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, blogosfera va turli raqamli platformalar yoshlarning kundalik hayotining ajralmas qismiga aylangan. Natijada ular nafaqat bilim manbai, balki tarbiya vositasi sifatida ham xizmat qilmoqda. Ammo mazkur muhitda tarqatilayotgan axborotlarning sifati va mazmuni har doim ham ijobiy emas. Ba'zi hollarda yoshlar ongiga zid bo'lgan, ularning ma'naviy dunyoqarashiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan materiallar ham uchrab turadi. Bu esa ma'naviy tarbiyani raqamli muhitda nazorat qilish va yo'naltirish zaruratini yuzaga keltiradi. Shuningdek, raqamli pedagogika sharoitida ma'naviy tarbiyani tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Masofaviy ta'lim, interaktiv darslar, multimedia vositalari va virtual platformalar orqali nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy maqsadlarni ham amalga oshirish mumkin. Masalan, elektron darsliklar, videoma'ruzalar va onlayn seminarlar orqali yoshlarning axloqiy qarashlarini shakllantirish, ularga milliy qadriyatlar haqida tushunchalar berish samarali natija beradi. Shu bilan birga, pedagoglar tomonidan raqamli vositalardan to'g'ri va maqsadli foydalanish muhim hisoblanadi.

Ma'naviy tarbiyani raqamli muhitda samarali tashkil etishda o'qituvchining roli ham tubdan o'zgaradi. An'anaviy pedagogika sharoitida o'qituvchi asosiy bilim manbai hisoblangan bo'lsa, hozirgi kunda u ko'proq yo'naltiruvchi, maslahatchi va moderator vazifasini bajaradi. Bu esa pedagogdan yuqori darajadagi axborot-kommunikatsiya kompetensiyasini, shuningdek, ma'naviy yetuklikni talab etadi. Zero, o'qituvchi o'zi namunali bo'lmas ekan, yoshlar ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qiyin bo'ladi. Bundan tashqari, oila va jamiyatning ham ma'naviy tarbiya jarayonidagi o'rni beqiyosdir. Raqamli muhitda yoshlarning faoliyati ko'p jihatdan nazoratsiz bo'lib qolayotgan bir paytda, ota-onalar va jamoatchilik tomonidan ularni to'g'ri yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish, ularda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, milliy o'zlikni anglash hissini mustahkamlash zarur.

Raqamli pedagogika sharoitida ma'naviy tarbiyani samarali tashkil etishda axborot xavfsizligi va mediata'lim masalalari alohida o'rin tutadi. Chunki zamonaviy yoshlar axborotni asosan internet orqali qabul qilmoqda va ularning aksariyati ma'lumotning ishonchliligi, manbasi hamda maqsadini

tahlil qilish ko'nikmalariga yetarlicha ega emas. Shu bois mediata'lim orqali yoshlarni axborotni tanqidiy qabul qilishga o'rgatish, ularda mustaqil fikrlashni rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi<sup>6</sup>. Mediata'lim nafaqat bilim berish, balki ma'naviy immunitetni shakllantirish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Bundan tashqari, raqamli muhitda ma'naviy tarbiya jarayonini tashkil etishda milliy kontent yaratish masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Aksariyat hollarda yoshlar xorijiy axborot makonining faol iste'molchisi bo'lib qolmoqda. Bu esa ularning dunyoqarashi va qadriyatlar tizimiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, milliy mentalitet, urf-odatlar va tarixiy merosni aks ettiruvchi sifatli raqamli resurslarni yaratish va keng targ'ib qilish zarur. Bunday yondashuv yoshlarning o'z milliy o'zligini anglashiga, vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishiga xizmat qiladi.

Raqamli pedagogika doirasida ma'naviy tarbiya berishda ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda Facebook, Telegram, Instagram va boshqa platformalar yoshlar orasida keng ommalashgan. Ushbu platformalar orqali turli ma'naviy-ma'rifiy loyihalarni amalga oshirish, motivatsion kontentlar tarqatish, ijobiy rol modellari orqali yoshlarni tarbiyalash mumkin. Shu bilan birga, bu jarayonda axborot madaniyatiga rioya qilish, etik me'yorlarni saqlash muhim hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlardan biri sifatida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari ham ma'naviy tarbiyani rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvda har bir o'quvchining individual xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlari inobatga olinadi. Natijada tarbiya jarayoni yanada samarali va natijador bo'ladi. Ayniqsa, raqamli platformalar orqali individual yondashuvni amalga oshirish imkoniyati kengayadi, bu esa ma'naviy tarbiyaning sifatini oshiradi. Shuningdek, raqamli pedagogika sharoitida ma'naviy tarbiya berishda integrativ yondashuvni qo'llash ham muhimdir. Ya'ni, tarbiya jarayonini faqatgina bitta fan yoki yo'nalish doirasida emas, balki barcha fanlar kesimida amalga oshirish lozim. Masalan, tarix, adabiyot, huquqshunoslik va hatto texnika fanlari orqali ham ma'naviy qadriyatlarni singdirish mumkin. Bu esa yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi va ularni har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllantiradi. Umuman olganda, raqamli pedagogika sharoitida ma'naviy tarbiya masalalari kompleks yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda pedagoglar, ota-onalar, davlat va jamiyat institutlari o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritishi zarur. Faqatgina shu yo'l bilan yosh avlodni zamonaviy bilimlarga ega, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida shakllantirish mumkin.

**Xulosa:** Raqamli pedagogika sharoitida ma'naviy tarbiya masalalarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda ta'lim va tarbiya jarayoni tubdan yangi bosqichga ko'tarilgan. Globallashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi hamda raqamli muhitning kengayishi yoshlar ongiga ta'sir etuvchi omillarni sezilarli darajada ko'paytirdi. Shu bois, ma'naviy tarbiya jarayoni an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda zamonaviy raqamli pedagogika tamoyillari asosida ham tashkil etilishi zarur. Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli muhit yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratishi bilan birga, ma'naviy xavflarni ham keltirib chiqarmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va blogosfera orqali tarqatilayotgan axborotlarning barchasi ham ijobiy tarbiyaviy ahamiyatga ega emas. Ba'zi hollarda noto'g'ri, buzilgan yoki zararli kontentlar yoshlar dunyoqarashiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu esa ma'naviy tarbiyani kuchaytirish, axborot madaniyatini shakllantirish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish zaruratini yanada dolzarb qiladi. Shuningdek, ma'naviy tarbiya jarayonida pedagogning roli o'zgarib, u endilikda nafaqat bilim beruvchi, balki yo'naltiruvchi, tarbiyaviy jarayonni boshqaruvchi subyekt sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini interaktiv va samarali tashkil etish mumkin bo'lsa-da, ma'naviy tarbiya mazmuni insoniy omil, ya'ni o'qituvchi va tarbiyachining shaxsiy namunasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib qolmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ma'naviy tarbiyaning samaradorligi faqat ta'lim muassasalari bilan cheklanib qolmaydi, balki oila, jamiyat va davlat hamkorligiga ham bog'liqdir. Yoshlarni ma'naviy barkamol shaxs etib tarbiyalashda milliy qadriyatlar, tarixiy meros va umuminsoniy g'oyalarga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda raqamli texnologiyalar esa vosita sifatida xizmat qilishi, ya'ni tarbiyaning asosiy mazmunini almashtirmasligi, balki uning samarali yetkazilishini ta'minlashi lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. To'xtaxodjayeva M.X. Pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.



2. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
3. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2015.
4. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta’lim sifati va samaradorligini oshirish muammolari. – Toshkent: Fan, 2013.
5. Yo’ldoshev J.G’. Pedagogika asoslari. – Toshkent: O’qituvchi, 2012.
6. Hasanboyeva O. Oilada ma’naviy tarbiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.



Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyat Axborot va Ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2025-yil 26-dekabrda №1273056 sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

**Tahririyat manzili:** 200117, O‘zbekiston Respublikasi,  
Buxoro shahri Alpomish ko‘chasi, 9-uy  
**Elektron manzil:** <https://aspec.uz>  
Telegram raqami: -998 (91) 245-46-66

*“ACADEMIC SPECTRUM” ilmiy-metodik jurnal.*  
*Buxoro, 2026. № 5-Son.*